
“Beruniy” mahallasida 3 ming metrga yaqin ichimlik suvi tarmog‘i tortilmoqda

“Beruniy” MFY hududidagi Marg‘ilon va Qirguli ko‘chalarida joylashgan ko‘p qavatli uylarga 2,8 kilometr ichimlik suv tarmog‘i tortilmoqda.

Mavjud tarmoq eskirganligi bois ko‘p bora ta‘mirlash ishlari olib borildi. Endilikda shu hududda yashovchi fuqarolar uchun sifatli, bosimi baland bo‘lgan toza ichimlik suvi yetkazib beriladi.

Mazkur ishlarni bajarish taklifi “Tashabbusli byudjet” loyihasining ikkinchi bosqichiga kiritilib, fuqarolar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. G‘olib bo‘lgan taklif uchun 525 million so‘m mablag‘ ajratilgan.

2023-03-06 16:05:40